

Qoraqalpoq Musiqa Uslubi O`Ziga Yarasha Xilma-Xil Va Rang-Barangligi

*Turdiyev Qalbay Abievich*¹

Annotatsiya. Karakalpak musical styles are based on the household economy of people's lives, geographical features of the region and formation in the process of direct socio-historical development. If you pay attention to their musical genres, they are also very diverse, especially in the style of " Jirov bakhshilik" has a special place.

Kalit so`zlar: Folk art, culture, architecture, folk music, heritage, jirov, bakhshi, kobyz, dombra, balamon, chinkobyz, artist, variety genre, opera.

Qadimiy va boy tajribaga ega qoraqalpoq milliy musiqa madaniyati barkamol yosh avlodga ta`lim va tarbiya berishda asosiy vosita xisoblanadi.

O`zbek va qoraqalpoq xalq qushiqlarining badiiy matnida insoniyatning paydo bo`lishidan tortib, asrlar osha shakllanib kelgan tarixi va orzu intilishlari talqin qilingan. Halq qarashlarining tadrijida qo`shiqning to`ngan o`rni, tarixiy asoslari, poetikasi, g`oyaviy- badiiy hususiyatlari, halq turmush tarzidagi maishiy vazifasi, shuningdek, qo`shiqning janriy hususiyatlari, o`larda talqin qilinayotgan ramz, obraz, tilsimlar mohiyatini ochib berish va funktsional o`zgarishlarni ilmiy nuqtai nazardan tahlil etish asosida muayyan xulosalarga kelish fol`klorshunoslikning tadqiq etilishi zarur bo`lgan dolzarb masalalari jumlasidandir.

O`zbek musiqa madaniyati qadimiy va boy merosga ega ekanligini butun dunyo tan olmoqda, shuningdek, u o`zining qadimiyligini saqlagan holda, yangi zamonaviy uslublar, janrlar va sohalar bo`yicha rivojlanib bormoqda. SHuning uchun ham umumta`lim maktablari musiqa madaniyati darslari jarayonida amalga oshirilayotgan ishlar, milliy musiqa ta`limining asosiy maqsadi ham o`sib kelayotgan yosh avlodni milliy musiqa madaniyatimizni va jahon musiqasini tushuna olishi bilan birga uni farqlay biladigan shaxs sifatida kamol toptirishga qaratilgandir. [1. Mirziyoev. 2017]

Har qanday jamiyatda yosh avlod tarbiyasi davlat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri bo`lib kelgan. CHunki, jamiyatning jamiyat sifatida ravnaq topishi va rivojlanishi ana shu kelajak avlodi tarbiyasiga bog`lik. Ma`lumki, tarbiya shahsni jamiyatdagi ijtimoiy-iktisodiy ishlab chikarish munosabatlariga tayyorlash, shuningdek, uning ma`naviy, aqliy, jismoniy va musiqiy rivojlanishiga muntazam ta`sir etib boruvchi o`zluksiz jarayon. Jumladan, mustaqillikning dastlabki yillarida «Qoraqalpoqiston vatanim manim», «Fol`klor» etnografik ansamblarning Respublika tanlovlari, baxshi-oqinlarning halqaro tanlovi, Halqaro «SHark taronalari» musiqa festivali kabi qator nufo`zli tanlovlarni tilga olish mumkin.

Ma`lumki, xalq musiqasini tashkil etuvchi mahalliy musiqiy uslublar biri-biriga o`xshamagan holda rang-barangligi bilan alohida ajralib turadi. Har bir vohiya, har bir viloyatga xos qo`shiq, raqslar, musiqiy asboblari va milliy raqsboq kiyimlar haqida 6-7- sinf musiqa darsliklarida imkon darajasida ma`lumot berilgan va bu ma`lumotlar o`quvchi-yoshlar ma`naviyatini boyitishda katta ahamiyat kasb etadi.

Bizning milliy musiqa uslublarimiz haqida gap ketganda, asosan Toshkent-Farg`ona, Samarqand-Buxoro, Surxondaryo-Qashqadaryo va Xorazm musiqa uslublari alohida ta`kidlanadi. Boshqa viloyatlar musiqa uslublari esa shularga yondoshgan holda shakllangan hisoblanadi.

¹ Dotsent, O`zbekiston davlat san`at va madaniyat instituti Nukus filiali



Mazqur tadqiqotning maqsadi, o`zbek va qoraqalpoq xalq qo`shiqlarining janriy hususiyatlarini tadqiq etish, tasnifi masalalarini qiyosiy o`rganish, ilmiy jihatdan asoslash va ushbu jihatdan jarayonga yunaltirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqishga urinish. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar quyildi:

- o`zbek va qoraqalpoq xalq qo`shiqlarining tasnifi masalalarini qiyosiy o`rganish;
- xalq qo`shiqlari janrlarining yuzaga kelishiga asos bo`lgan poetik modellarning shakllanishida qadimgi ishonch-e`diqodlar va arxaiik miflarning o`rni va vazifalarini oydinlashtirish. [2. Mirziyoev. 31.05. 2017]

Mazqur tadqiqot ishida o`zbek va qoraqalpoq xalq qo`shiqlarining fol`kloshunos va musiqashunos tadqiqotchilar tomonidan o`rganilishi masalalari, qo`shiqlar tasnifini, qiyosiy tahlillari, marosim va namarosim qo`shiqlarining o`rganilishi, ularning tasnifi va nomoddiy madaniy merosda to`tgan o`rni, ularning o`ziga xos jihatlari, poetikasi va janriy hususiyatlari yoritilgan. SHuningdek marosim fol`klorida xalq qo`shiqlarining kelib chiqishi shomonizm, anemizm, totemizm kabi qadimiy diniy e`tiqodlar bilan bog`liqligi, nomarosim qo`shiqlarining o`ziga hos hususiyatlari, ularning marosim qo`shiqlaridan farqli jihatlari qiyosiy tahlil etilgan.

VIII asr oxiri- IX asr boshida xalifalikni larzaga keltirgan og`ir siyosiy vaziyat abbosiylarning Movarounnahr va Xurosonda olib borayotgan siyosatini o`zgartirishga majbur etdi. Birin-ketin O`rta Osiyoda tohiriylar, safforiylar, somoniylar davlatlari tashkil topdi. Mamlakatda sodir bo`lgan bunday siyosiy o`zgarishlardan so`ng Movarounnahr Xurosondan ajralib o`z mustaqqilligini to`la tiklab olish imkoniga ega bo`ldi. Movarounnahrni birlashtirib mustahkam davlat tuzgan davlat arbobi Ismoil Somoniy, 900 yilda Xurosonni ham safforiylardan tortib olib ulkan davlat barpo etdi. Xalifa somoniylar davlatini tan olishga va unga hukmronlik yorlig`ini yuborishga majbur bo`ldi. SHu tariqa IX asr oxirlariga kelib Movarounnahr xalqlari Arab xalifaligidan abadiy xalos bo`ladi va arab xalifaligidan mustaqil bo`lgan yirik feodal davlat-Somoniylar davlati tashkil topadi. [3. Akbarov. B.243]

Somoniylar mamlakatni boshqarishda davlat ma`muriyatini tashkil etadilar. Mamlakat o`nta devon (devoni vazir, devoni mustafi, devoni amir al-mulk, devoni sohib ash-shurat, devoni sohibi muayid yoki borid, devoni mushrif, devoni mumallikayi xos, devoni muhtasib, devoni avqof, devoni qazo azziya) boshqaruvida idora etilgan. Somoniylar hokimiyati yirik zamindorlarning manfaatini himoya qiluvchi mustaqil feodal davlat edi («mulki sultoniy», «mulk erlari», «vaqf erlari») X asr oxiriga kelib mamlakatda avj olib ketgan o`zaro urushlar uning iqtisodiy va siyosiy qudratiga katta putur etkazdi va somoniylarning qoraxoniylar davlatidan mag`lubiyatga uchrashiga olib keldi. XI asr boshlarida somoniylar davlati hududlarida ikki davlat: qoraxoniylar va g`aznaviylar davlatlari paydo bo`ldi.

Qoraxoniylar davlatni el-yurt va viloyatlarga bo`lib idora qildilar. XI-XII asr-larda O`rta Osiyoda mulkchilikning yangi turi-iqta` tartiboti o`rnatiladi («mulki sultoniy», «iqta`», «vaqf erlari», «mulk erlari»). XII asrning 30-yillari oxirida Movarounnahr SHarqdan kelgan ko`chmanchi Qoraxitoylar hujumiga duchor bo`ldi.[4. Botirov Y., Toshmuxamedova D. B.249-250].

IX-XII asrlarda mamlakat ma`naviy hayotining asosi islom mafkurasi edi. Somoniylar islom mafkurasining rivojiga katta ahamiyat berdilar. Buxoro SHarqda is-lom dinining eng nufuzli markaziga aylandi. Masjid, madrasa va xonaqolar qurish uchun maxsus joylar ajratildi. Arab tili va uning imlosi joriy etildi.

Eng mashhur madaniyat markazi shu davrda Bag`dod shahri edi. Bag`dodda «Bayt ul hikma» (donishmandlar uyi) tashkil etilgan edi. «Bayt ul hikma»da Ahmad Farg`oniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Ahmad ibn Abdulloh Marvaziylar ta`lim olganlar. IX-X asrlarda O`rta Osiyoda fan ilmiy asoslarga ega edi. Uning ildizlari O`rta Osiyo, ayniqsa, Xorazm, shuningdek Bobil, Eron, Hindistonning antik dunyosiga va qadimgi madaniyatiga borib taqalar edi.

IX-XII asrlarda arab tilida asarlar yoz-gan eng mashhur olimlar Ahmad Farg`oniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abusalx Masihiy, Abulhayr Xam-mar, Abunosir Arron va boshqalar edi. 1998 yil Ahmad Farg`oniyning 1220 yilligi



nishonlandi. Ahmad Fargʻoniy astronom, matematik, geograf edi. Bagʻdod yaqinda Raqoq nomli mavzeda rasadxona qurilishiga boshchilik qilib, astronomiya maktabini tashkil etadi. Uning «Astronomiya asosi», «Samoviy harakatlar», «Yulduzlar haqidagi fan» nomli asarlari mashhurdir.

Muhammad ibn Muso Xorazmiy mashhur matematik, astronom, geograf, tarixchi edi. Vatandoshimiz algebra faniga asos soldi.

Uning «Al-jabr», «Zij», «Quyosh soati haqida risola», «Surʻat ul-arz», «Usturlob holati haqida risola» kabi asarlari SHarq va oʻarb mamlakatlarida ilmiy fikrlarning rivojiga samarali taʻsir koʻrsatdi.

Abu Nasr Farobiy SHarq falsafasining ulugʻ mutafakkiri boʻlib, qadimgi dunyo falsafiy merosini saqlashda va rivojlantirishda katta hissa qoʻshdi. U 160 dan ortiq asar yozgan, ulardan «Aristotelning «Metofizika» asari maqsadlari haqida», «Musiqi kitobi», «Baxt-saodatga», «Siyosat al-madoniya» shular jumlasidandir.[5.B. 93-95]

Abu Ali ibn Sino ikki sohaga- meditsina va falsafaga qiziqdi va bu sohalarda katta yutuqlarni qoʻlga kiritdi. («Al-qonun fit-tib», «Kitob ush-shifo», «Donishno-ma», «Risolat at-tayr»). XVII asrga qadar Evropada tibbiyot tajribasi va fani Ibn Sino gʻoyalari taʻsiri ostida boʻlgan.

Xorazm madaniyati xorazmlik ulugʻ olim Abu Rayhon Beruniyning nomi bilan bogʻlangan. Abu Rayhon Beruniy 150 dan ortiq ilmiy asar yozgan boʻlib, «Oʻtmish avlodlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Meteorologiya» kabi yirik asarlari shular jumlasidandir. Beruniy ilm-fanning hamma sohalarini yaxshi bilgan qomusiy olim edi. U astronomiya, geologiya, gidrostatika, geografiya, tarix fanlarga katta hissa qoʻshdi.

XI-XII asrlarda ijtimoiy fanlar ham anchagina taraqqiy etdi. Masalan, shoir Abu Abdullo Rudakiyning prozaik asarlari, Abulqosim Firdavsiyning «SHohnoma»si, Gardiziyning «Zayn-ul-bahor» («Goʻzal xabarlar») asari, Majididdin Admoning «Tarixi mulki Turkiston» («Turkiston tarixi»), Nizomulmulkning «Siyosatnoma»si, YUsuf Xos Xojibning «Qutadgʻu bilik» asarlari shu davrga oid boʻlib, undan tashqari shu davrlarda Zamaxshariy, Mahmud Qoshgʻariy, Amak Buxoriy, Soʻzani Samarqandiy kabilar ham ijod etdilar.[6.B.43-44]

Bu davr Oʻrta Osiyoda meʼmorchilik sanʼati ham gurkirab rivojlandi. Buxoroda Dehgaron, Masjidi kalon, Namozgoh, Magʻoki Attoriy masjidlari, Surxondaryodagi Jarqoʻton minorasi, Koʻhna Urganchda Faxriddin Roziy maqbarasi, Marvdagi Sulton Sanjar maqbarasi, Talxojanboboda masjidi va boshqa yodgorliklar meʼmorchilik sanʼatining yorqin namunalari hisoblanadi.

IX-XII asrda dunyoviy fanlar bilan birga diniy bilimlar ham keng rivojlandi. Ismoil Buxoriy, Iso Termiziy, Burxonuddin Margʻiloniy, Abu Xafs Kabir Buxoriy kabi ulamolar islom taʼlimotining rivojiga ulkan hissa qoʻshdilar. Islom dini taʼlimotining ravnaqi va targʻibotining kengayishida Buxoro shahri markaziy oʻrin egalladi. Tasavvuf taʼlimoti rivojlanib Oʻrta Osiyoda uning turli xil yoʻnalishlari (XII asrda Turkistonda YAssaviya, XIII asr oxirida Xorazmda Kubroviya, XIV asrda Buxoroda Naqshbandiya) paydo boʻldi va tarqaldi.

Bulardan tashqari yana bitta oʻziga xos uslub – qoraqalpoq musiqiy uslubi ham oʻzbek milliy musiqa madaniyatida alohida oʻrin tutadi. Biz bu haqda umumtaʼlim maktablari musiqa darsliklarida maʼlumot bermas ekanmiz, oʻquvchi-yoshlar ongida milliy musiqamiz tarixi, uning yuksakligi, dunyoda uning alohida oʻrni borligini va eng asosiysi uning naqadar rang-barangligini tushuntirishimiz ancha qiyin kechadi. [7.B.32-33]

Qoraqalpoq musiqiy uslublari mazkur halqning maishiy turmush tarzi, mintaqaviy geografik xususiyatlarni oʻzida mujassam etgan boʻlib, bevosita ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan. Agar uning musiqiy janrlariga nazar solsak ular ham juda xilma-xildir, ayniqsa, “Jirov-baxshichilik” uslubi alohida oʻringa ega. Jirov-baxshi ijrochiligi juda qadimiy boʻlib, “qoʻbiz” musiqa asbobidan foydalanishadi. “Qoʻbiz”- musiqa asbobi gʻijjaksimon asbob boʻlib, ikkita tori mavjud va kosa qismi ochiq, hech narsa bilan qoplanmagan holatda boʻladi. Uning ovozi esa oʻziga xos. boʻgʻiq ohangda boʻlib, kuylovchi ham unga joʻr ohangda boʻgʻiq ovozda kuylaydi. Baxshilar bu cholgʻu sozida doston qoʻshiqlari va halq termalaridan ijro qilishadi.



Halq qo`shiqlaridan “CHimboy”, “Dam bermes”, “Qiz munoyim”, “Poshshoyi ko`ylak”, “Bo`zatog`” kabi qo`shiqlar halq orasida ommalashgan bo`lib, hozirgi paytda ham san`atkorlar tomonidan sevib ijro etilmoqda.

Qoraqalpoq milliy raqslari alohida o`ringa egaki, yigit va qizlar raqs tushganda ularning tez va chaqqon harakatlari e`tiborni o`ziga tortadi.

Mamlakatimizda keng tus olgan “Mustaqillik va Navruz” bayramlarida, ayniqsa Toshkentda bo`lib o`tadigan boshqa katta anjumanlarda Qoraqalpoq san`atkorlarining chiqishlari umumxalq diqqatiga sazovor bo`lmoqda.

Qoraqalpoq san`atkorlari “estrada” janrida ham ancha muvaffaqiyatga erishmoqdaki buni ham alohida ta`kidlash zarur. “Opera” janrida ham ko`zga ko`ringan san`atkorlar ijod qilishmoqda va muvaffaqiyat qozonmoqdalar.

Qoraqalpoq milliy cholg`u ansambllarida – qo`biz, do`mbira, bulamon, chinqovuz kabi musiqiy asboblardan mavjud bo`lib, hozirda Qoraqalpoq musiqachilari o`zbek cholg`u asboblardan rubob, doira, g`ijjak, chang, nay va boshqa musiqiy asboblardan ham foydalanishadi. SHuning natijasida bu musiqiy asboblardan biri-biriga uyg`unlashib, ular taratayotgan “ohang” ham o`ziga yarasha koloritda eshitiladi.

Qoraqalpoq musiqa uslubini ilmiy tadqiqot qilish va uni keng targ`ib qilish, bizning ma`naviy dunyomizni yanada boyishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 maydagi «Madaniyat va san`at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora- tadbirlar to`g`risida»gi Qarori. www.lex.uz.
2. Akbarov I. Musiqa lug`ati G`afur Hulom nomidagi “Adabiyot va san`at” nashriyoti T.
3. Botirov Y., Toshmuxamedova D. “O`qituvchi uchun metodik qo`llanma”
4. Qodirov R. «Musiqa pedagogikasi»-T.»Musiqa» 2009 y.
5. Umumiy o`rta ta`limning Davlat ta`lim standarti va ukuv dasturi «Ta`lim tarakkiyoti». -T.: «SHark» 1999 y.
6. Musaqulov A. O`zbek xalq qo`shiqlarining tarixiy asoslari. – Toshkent, 1994.
7. Maqsetov Q. Qaraqalpaq xalqының ao`yzeki doretpeleleri. – Nøkis: Bilim, 1996. – B. 340.

